



KORRUPSIYANING MOHIYATI, OQIBATLARI VA UNGA QARSHI KURASHISH MEXANIZMLARI

Usmanova Sh,Sh

Igamberdiyev D

Andijon davlat pedagogika instituti

Ijtimoiy fanlar kaferasi katta o'qituvchilari

G'ulomova Saodatoy Baxtiyor qizi

Oxunjonova Shahzoda Ixtiyorjon qizi

Fizika yo'nalishi 102guruh talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada korrupsiya hodisasining nazariy-metadologik asoslari, uning ijtimoiy iqtisodiy va siyosiy hayotga ko'rsatadigan salbiy ta'siri chuqur tahlil etildi. Maqola korrupsiyaviy xavflarni kamaytirish ochiqlik va hisobdorlik tamoyillarini mustahlashga qaratilgan tizimli yondashuvni taklif qiladi.

Kalit so'zlar: Korrupsiya, ijtimoiy – iqtisodiy oqibatlar, korrupsiyaga qarshi kurash, ochiqlik hisobdorlik, korrupsiyaviy xavf.

Kirish. Zamonaviy globallashuv sharoitida korrupsiya dunyo hamjamiyatini tashvishga solayotgan eng dolzarb muammolardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Korrupsiya nafaqat alohida davlatlarning iqtisodiy rivojlanishiga balki umuman xalqaro xavfsizlik, ijtimoiy adolat va demokratik qadryatlarning barqarorligiga tahdid soluvchi



omilga aylangan. Mazkur illat davlat boshqaruvi tizimida ishonchni susaytiradi, qonun ustuvorligiga putur yetkazadi hamda taraqqiyot jarayonlarini izdan chiqaradi. Ayniqsa rivojlanayotgan davlatlar uchun korrupsiya institutsional zaiflik nazoratning sustili shaffoflikning yetishmasligi va manfaatlar to'qnashuvi muammolari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan murakkab tizimli muammolarni yuzaga keltiradi. Ushbu maqolada korrupsiyaning nazriy asoslari, uning ijtimoiy iqtisodiy va siyosiy oqibatlari chuqur tahlil qilinadi. Shuningdek unga qarshi kurashishda qo'llanilayotgan xalqaro va milliy mexanizmlar huquqiy bazalar hamda institutsional yondashuvlar ilmiy nuqtayi nazardan korib chiqiladi. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki korrupsiyaga qarshi samarali strategiyalarni shkillantrish va amaliyotga joriy etish orqali barqaror taraqqiyot va ijtimoiy ishonch muhitni yaratishga erishish mumkin. Korrupsiya tushunchasi turli manbalarda turlicha talqin etilgan bo'lsada uning umumiy mazmuni vakolot va mansabni shaxsiy manfaatalar yo'lida suiistemol qilish, davlat yoki jamoat resurslaridan noqonuniy foydalanish shakllarini o'z ichiga oladi. Birlashgan Millatlar tashkiloti korrupsiyani ishonib topshirilgan vakolotni shaxsiy foyda olish maqsadida suiistemol qilish sifatida ta'riflaydi. Korrupsiyaning asosiy shakllari sifatida poraxo'rik, nepotizm, manfaatlar to'qnashuvi xizmat mavqeini suiistemol qilish va noqonuniy boylik ortirish holatlari ajratib ko'rsatiladi. Korrupsiyaning ijtimoiy iqtisodiy oqibatlari keng ko'lamli va ko'p darajali bo'lib, u jamiyatda adolatsizlikni kuchaytiradi, iqtisodiy samaradorlikni pasaytiradi, investitsion muhitni yomonlashtiradi hamda fuqarolarning davlat institutlariga bo'lgan ishonchni izdan chiqaradi. Iqtisodiy nuqtai nazardan korrupsiya moliyaviy resurslarning maqsadsiz sarflanishi soliq tushumlarining kamayaishi va soya iqtisodiyotining kengayishiga olib keladi. Siyosiy jihatdan esa korrupsiya hokimyatning markazlashuvini kuchaytiradi, demokratik davlat faoliyatini zaiflashtiradi va huquqiy davlat tamoyillarini paymol qiladi. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha xalqaro tajriba shuni ko'rsatmoqdaki bu illatlarga qarshi muvaffaqiyatli kurash olib borish uchun faqat jazolash mexanizmlari yetrali emas. Samarali natijaga erishish uchun kompleks va institutsional yondashuv zarur. Masalan Skandinaviya mamlakatlarida shaffoflik ochiqlik,



axborotga erkin krish va kuchli fuqarolik nazorati korrupsiyaviy risklarni keskin kamaytirgan. Shu bilan birga xalqaro tashkilotlar xususan BMT va GRECONing korrupsiyaga qarshi konvensiyasi asosida ishlab chiqilgan indikatorlar va ko'rsatkichlar korrupsiyaga qarshi global baholash va nazorat vositasi sifatida xizmat qilmoqda. O'zbekiston Respublikasi ham korrupsiyaga qarshi kurash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilangan.

Xulosa. Korrupsiya nafaqat iqtisodiy resurslarning samarasiz taqsimlanishiga balki jamiyatda adolat ishonch va qonun ustuvorligining yemirilishiga sabab bo'ladigan keng qamrovli ijtimoiy illatdir. Ushbu maqolada tahlil etilganidek, korrupsiyaga qarshi kurashish faqat jazolash choralari bilan emas, balki kompleks yondashuv, ya'ni institutsional islohotlar fuqarolik jamiyatining faolligi axborot tizimining ochiqqligi hamda siyosiy iroda bilan uyg'un holda amalga oshirilishi lozim. O'zbekistonda so'nggi yillarda korrupsiyaga qarshi kurashishda sezilarli siljishlar kuzatilayotgan bo'lsada barqaror natijalarga erishish uchun huquqiy institutsional va madaniy darajadagi islohotlarni yanada chuquqlashtirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat –yengilmas kuch. Toshkent: 2008
2. Berdiev A.A. Korrupsiyaga qarshi kurashning huquqiy asoslari. Toshkent: 2021
3. Shermuhamedova N.A. Korrupsiyaning sabalari va shakillari
4. Madaeva Sh, Shermuhamedova N, Falsafa O'quv qo'llanma. Toshkent 2019